



# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 15-oktabr, seshanba,

119 (23.996)-son

O'zbekiston  
Respublikasi Oliy  
Majlis Qonunchilik  
palatasi va xalq  
deputatlari  
Kengashlari  
deputatlari  
sayloviga  
**11 KUN**  
qoldi

[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) <https://www.instagram.com/zarnews.uz>

## MENING OVOZIM – MENING TANLOVIM!

**16-oktabrdan  
muddatidan  
oldin ovoz  
berish boshlanadi**

**SAYLOV  
2024**  
27-OKTABR  
MINGIN TANLOVIM – O'ZGAR VETMAMIZ

27-oktabr kuni o'tkaziladigan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi hal qiluvchi pallaga kirmoqda. Shu kunlarda siyosiy partiyalar, deputatlilikka nomzodlar o'z saylovoldi tashviqoti tadbirlarini o'tkazmoqda. Joylarda saylovchilar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, saylovoldi dasturi taqdimot qilinmoqda.

Saylov kodeksiga ko'ra, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgan saylovchi muddatidan oldin ovoz berish huquqiga ega.

Muddatidan oldin ovoz berish saylovga o'n kun qolganida boshlanadi va saylovga uch kun qolganida tugalananadi. Muddatidan oldin ovoz berishni o'tkazish vaqt Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi va saylovchilarining, kuzatuvchilarining e'tiboriga omavviti axborot vositalari orqali yetkaziladi.

Markaziy saylov komissiyasining joriy yil 8-oktabr kuni bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida saylovchilarining muddatidan oldin ovoz berishlarini tashkil qilish masalasi ko'rib chiqilib, qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgan saylovchilar 2024-yil 16-23-oktabr kunlari saat 9:00 dan 18:00 ga qadar, dam olish kunlari esa saat 11:00 dan 17:00 ga qadar o'z hududlaridagi saylov uchastkasiga borib, muddatidan oldin ovoz berishlarini mumkin.

Muddatidan oldin ovoz berishni amalga oshirish uchun saylovchi saylov kundida bo'la olmasligining sabablari (ta'il, xizmat safari, xorriga chiqish va hokazo) ko'rsatilgan ariza asosida tegishli uchastka saylov komissiyasidan saylov byulletenlarini oladi. Saylovchi saylov byulletenlarini olganchi haqida tegishli uchastka saylov komissiyasining kamida ikki nafer a'zosi hozirligida saylovchilar ro'yxatiga imzo q'yadi.

Saylov byulletenlari maxsus jihozlangan yashirin ovoz berish kabinasida yoki xonasida saylovchi tomonidan to'ldiriladi.

Saylovchi qaror qabul qilidi va to'ldirilgan saylov byulletenlarini yopiq konvertda qoldiradi, konvert tegishli uchastka saylov komissiyasining seyfida saqlanadi. Konvertning yelimgilang joyiga uchastka saylov komissiyasining ikki nafer a'zosining imzolari qo'yilib, ular komis-syaning muhri bilan tasdiqlanadi.

Saylov kuni ovoz berish yakunlanganidan so'ng ushuv konvertlar ichidagi byulletenlar ham saylov qutisiga tashlanib, so'ngra ovozlar sanab chiqiladi.

Hozirda viloyatimizdagi barcha saylov uchastkalari ga muddatidan oldin ovoz berishni o'tkazish uchun saylovchilar umumiy sonining 10 foizi miqdorida saylov byulletenlari yetkazib berilgan.

**Amrillo AKTAMOV,  
viloyat hududiy saylov komissiyasi kotibi.**



Saylov kuniqa qadar yoki saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan, ro'yxat tuzilayotgan paytda mazkur saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtinchalik istiqomat qilayotgan fuqarolar saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi.

Har bir saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkin.

Saylovchilarning ro'yxatlari saylovga o'n besh kun qolganida, O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalar huzurida, sanatoriylarda va dam olish uylarida, kasalxonalarda va boshqa statcionar davolash muassasalarida, o'lis va borish qiyin bo'lgan hududlardagi fuqarolar turgan joylarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarda tuzilgan uchastkalarda esa saylovga uch kun qolganida hamma tanishib chiqishi uchun taqdim etiladi.

**Saylov kodeksi 27-moddasidan.**

27-oktabr kuni bo'lib o'tadigan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari saylovini yuqori saviyada o'tkazishga viloyatimizda ham puxta hozirlik ko'rilmogda. Bugungi kunda viloyatda saylovni o'tkazish uchun 1130 ta saylov uchastkasi tuzilgan.

Past Darg'om tumanidagi 755-saylov uchastkasi 56-umumta'l'm maktabi binosida faoliyat yuritmoqda. Saylov kuni bu yerda Nayman va Mirzato'p mahallalarining 2 ming 989 nafr fuqarosini ovoz beradi. Ularning 67 nafrasi saylovorda ilk marta ishtirok etayotgan yoshlardir.

– Saylovni yuksak saviyada o'tkazish uchun uchastkada zarur shart-sharoit yaratildi, – deydi uchastka saylov komissiyasi raisi Shahlo Saidmuromova.

– Saylovchilar uchastkada saylovga oid qonunlar, kundalik matbuot nashrlari bilan tanishib, o'zlarini qiziqitirgan savollarga javob olishlari mumkin. 16-oktabrdan yurtimizda muddatidan oldin ovoz berish jarayonlari boshlanadi. Hozirda uchastkada ushbu tadbirga hozirlik ko'rilmogda.

Baxtiyor MUSTANOV.

## To'g'ri yo'ldan boraylik!

**Yangi harakat boshlandi. Kambag'al oilalar hayotini o'zgartirish, turmush tarzini yaxshilash uchun "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi amalga oshirilishi belgilandi. Davlat rahbari yig'ilish o'tkazib, bu tizim qanday ishlashi, kambag'al oilalar bilan ishlasha nimalarga e'tibor qaratish kerakligini aytdi. Ha, shu ishga mas'ul vazir yoki boshqa rahbar emas, aynan Prezident tushuntirdi, mas'ullarning qulog'iga quyib qo'ydi. Har bir rahbarga beshtadan kambag'al oila biriktiriladigan bo'ldi.**

Rahbarlar yig'ilishning ertsasigayoq o'z hududidagi kambag'al oilalarga kirdi, xonadonda yashovchilar bilan suhbatlashdi, ularning nima muammosi borligi, qanday yordam ko'rsatish kerakligi aniqlashtirib olindi. Va bu haqda ijtimoiy tarmoqlarda suratlari, videolavhalar paydo bo'ldi. Ko'ngillarda umid uyg'ondi – bu gal rahbarlar masalaga jiddiy kirishdi, demak, tez orada o'zgarishlar ko'zga tashlanadi.

Ko'p joyda amalii ishlar ham boshlandi. Bunda xursand bo'lish kerak!

23-sentabr kuni davlat rahbari "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirishga doir farmon va qaror qabul qildi. Bu hujjatlarda ham vazifalar, chora-tadbirlar aniq belgilandi, nochor oilalarni kambag'allikdan chiqarish tartibidan boshlab, bu qanday tarzda amalga oshirilishiga-

cha qayd etib qo'yildi. Ammo...

Ayrim "haybarakallachi" mas'ullarning xatti-harakati, odamlar hayotini emas, raqamlarni o'zgartirishga intilishi ortidan "ammo"lar yuzaga kelmoqda.

Viloyatimiz tumanlaridan birida bu borada olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot so'radik. Bir necha kun qayta-qayta so'ranganimizden keyin taqdim etilgan ma'lumotda keltirilishicha, yil yakunigacha tumanda kambag'allikni ikki barabarga qisqartirish belgilanibdi. Qanday yaxshi-ya. Ammo qaysi yo'l bilan, qanday manbalar hisobidan, nimaning evaziga, degan savollarimizga haligacha javob yo'q.

Ko'p joyda subsidiya asosida tikuv mashinasi, pishiriq pishirish pechi, motokultivator va yana shu kabi ishlatib, daromad topish mumkin bo'lgan vosi-

## Kambag'allikdan farovonlik sari

talar berilmoqda. To'g'ri, bu vositalardan samarali foydalanganlar turmushi biroz bo'lsa-da, o'zgaryapti, daromad topyati. Lekin shu "yordam"ning o'zi bilan qo'zda chiqa ham amalda kambag'allikdan chiqmayotgan oilalar kam emas-da.

Yana bir ma'lumotga ko'zim tushdi. Tumandagi banklardan birining rahbari o'ziga biriktiligan kambag'al oilaning ishsiz a'zosiga 30 million so'm imtiozi kredit ajratib, motokultivator olib beribdi. Uni shu yo'l bilan kambag'allikdan chiqarmoqchi ekan. Aytin-chi, ishsiz fuqaro bu vositan ishlatib, bola-chaqa boqsinmi yoki kredit to'lasinmi? O'zi bitta motokultivator qancha turadi?

O'zi va xodimlari ikki oyдан buyon maosh olmayotgan bir tashkilat rahbariga ham beshta kambag'al oila biriktiliganini eshitib, kulinshi ham yig'lashni ham bilmadim. Axir uning o'zi yordamga muhtoj-ku!

Xullas, Prezident boshlagan bu xayli ishga xo'jako'rsinga deb, raqamlar uchungina bosh qo'shamaslik kerak. Kambag'allikdan farovonlik sari to'g'ri yo'lidan boraylik, odamlarning hayoti yaxshi tomoniga o'zgarsin, kambag'al oilalarga yorug'lik, baraka kirsin, deb zimmamizdag'i vazafalarni bajaraylik.

G'olib HASANOV.

**Har bir tumanda kamida  
mingta ish o'rniga ega  
sanoat zonalari bo'ladi**



**Nomzodlar  
qo'shrabolik saylovchilar  
bilan uchrashdi**



Samarqand davlat universiteti qoshidagi akademik lit-seyyda xalq deputatlari viloyat kengashiga saylov o'tkazuvchi 2-Afrosiyob saylov okrugidan nomzod Erkinjon Turdimovning ishonchli vakili Shekrox Abbosov saylovchilar bilan uchrashdi.

Uchrashuvda O'zbekiston Liberal-demokratik partiysi viloyat kengashi raisi Ilhom Botirov so'zga chiqib, partyaning 5 maqsad, 500 vazifani o'z ichiga qrambat olgan xalqchil saylovoldi dasturi to'g'risida ma'lumot berdi.

- Saylovchilar siyosiy partiyalarning eng muhim hujjati - bu ularning saylovoldi dasturi hisoblanadi, - dedi Sh.Abbosov. – Chunki dasturda partiyalarning kelgusi besh yillik faoliyati yo'nalishlari, asosiy maqsad-vazifalar o'z aksini topadi.

Jumladan, partiyamizning saylovoldi dasturida avvalo, "O'zbekiston-2030" strategiyasidan kelib chiqqan holda inson qadr-qimmati, erkinligi, huquq va manfaatlari, farovon yashashi kabi masalalarga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Mamlakat iqtisodiyoti mustahkam va baquvvat bo'lsa, unda yashayotgan insonlar farovon yashaydi. Shundan kelib chiqib, partiyamiz dasturidan iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlari, sohaning qonunchilik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan maqsad-vazifalar o'rin olgan.

Shuningdek, dasturimizda har bir tumanda kamida mingta ish o'rnari yaratadigan ikkitadan yangi sanoat zonalarini tashkil qilish va har bir hududda kasbga o'rgatish monomarkazlari faoliyatini yo'liga qo'yish maqsad qilingan.

O'zLiDEP viloyat kengashi axborot xizmati.

Saylovoldi tashviqoti partiya hamda nomzodlarning g'oya va dasturlarini saylovchilarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadigan demokratik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois yurtimizdagi boshqa siyosiy partiyalar qatori "Milliy Tilkhanish" demokratik partiysi va partiyadan parlament hamda mahalliy Kengashlar deputatligi ko'rsatilgan nomzodlar ham bu jarayonda faol ishtirok etmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga 30-Samarqand saylov okrugidan nomzod Bekmirza Eshmirzayev hamda xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga 22-Jo'sh saylov okrugidan nomzod Sa'dulla Absamatov Qo'shrabolik tumanidagi Toz, Sorg'ul, Urganji, Jonbuluoq mahallalarida saylovchilar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Tadbirlarda deputatlarga nomzodlar partyaning 2025-2029-yilarga mo'ljallangan saylovoldi dasturida belgilangan ustuvor vazifalarga to'xtaldi. Partiya dasturidagi har bitta yo'nalish va ularning mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz turmush farovonligini oshirishdagi ahamiyatini saylovchilarga tushuntirdilar.

Ochiq muloqotlarda nomzodlar saylovchilarni qynab kelayotgan masalalarni ham o'rgandi. Majjud muammolarning yechimi bo'yicha fikr-mulohazalar bildirilib, aholi tomonidan berilgan savollarga atroficha javob berildi.

Uchrashuvlar yakunida nomzodlar saylovchilarni 27-oktabr kuni "Milliy Tilkhanish" demokratik partiysi va partiyadan ko'rsatilgan nomzodlarni qo'llab-quvvatlashga chaqirdilar.

O'zMTDP viloyat kengashi axborot xizmati.



**Akademik eshkak eshish  
bo'yicha Osiyo championatida  
12 ta medalni qo'lga kiritdik**

**10-13-oktabr kunlari Samarqandda akademik eshkak eshish bo'yicha Osiyo championati bo'lib o'tdi.**

13 mamlakatdan 250 nafr sportchi ishtirok etgan qit'a birinchiligi da 9 dasturda 2 kilometr masofaga poygalar tashkil etildi.

Musobaqa natijasiga ko'ra, vakillarimiz umumjamoa hisobida 5 ta oltin, 4 ta kumush va 3 ta bronza medali bilan Xitoydan so'ng ikkinchi o'rinni egalladi.

## Sudyalarini ko'paytirish zarur

Bugun mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovi samarali ta'minlash hamda sudyalar hamjamiyatining rollini oshirish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilib, amaliyatga tatbiq etilmoqda.



Buning natijasida odil sudlov jarayonida inson huquqlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga ko'tariyapti. Jumladan, nohaq ayblovlarga uchrangan mingdan ortiq fuqaro oqlandi, adashib jinoyat yo'liga kirib qolgan hamda o'z aybi, bosqin noto'g'ri qadamlaridan pushaymon bo'layotgan ko'pgina yoshlar va xotin-qizlariga mahalla va jamoatchiliklari kafilliklari asosida yengilroq jazon berilyapti. Shu bilan birga, sud himoyasini ta'minlashdagi ortiqcha byurokratik to'siqlar saqlanib qolayotganligi, sud qarorlarini qayta ko'rishning bir-birini takrorlovchi bosqichlari mavjudligi, investorlar huquqlarining suh himoyasida bo'lishi yetarli darajada tashkil etilmaganligi va boshqa bir qator kamchiliklari sud organlarining amalida tuzilishini zamon talablar va xalqaro standartlarga muvofiq qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'dirmoqda.

Adolatlari va mustaqil sud tizimini yaratish orqali fuqarolarning odil sudlova bo'lgan ishonchini mustahkamlash choralarini ko'ramiz va bu borada quydagi vazifalarni amalga oshiramiz:

Bugungi kunda ayrim hollarda sudyaning o'tracha ish hajmi bir necha yuzlab sud ishlari va materiallarni tashkil etmoqda. Bu esa o'z navbatida sudlar tomonidan ishlarni ko'rish muddatiga va sifatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Statistik raqam-larga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022-yil davomida jinoyat ishlari bo'yicha birinchi instansiya sudida 58 ming 697 ta jinoyat ishi, 539 ming 686 ta ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ko'rib chiqigan. Shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar 863 ming 883 ta, iqtisodiy sudlar 277 ming 862 ta ishni ko'rib chiqqan. Buning natijasida jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudingin bir sudyasi bir oyda o'tracha 181 ta ishni, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudingin sudyasi 269 ta, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudingin sudyasi esa 163 ta ishni ko'rib chiqishiga to'g'ri kelgan.

Xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bir suda bir oyda AQShda o'tracha 40 ta, Kanadada 50 ta, Yaponiyada 10 ta, Germaniyada 15 ta va Buyuk Britaniya 20 ta ish ko'radi. Shuningdek, O'zbekiston aholisining o'sish sur'ati kundan-kunga ortib bor-moqda.

**Himmat OQBO'TAYEV,**  
**"Adolat"SDP viloyat kengashi  
raisi.**

## Jahonga mashhur astrofizik Samarcandda

Samarqand davlat universitetida hisoblash fizikasining dunyoga mashhur olimi, qora tuyunklarning birinchi tasvirlarini yaratuvchilardan biri, italiyalik professor Lusiano Rezzolla bilan uchrashuv tashkil etildi.



Tadbirda italiyalik olim koinothing sirli oynasi - qora tuyunklarning birinchi surati bo'yicha o'z izlanishlarini taqdimot qildi.

- Yulduzlar odamzodga o'xshab tug'iladi, yashaydi, so'nadi. Mabodo juda og'ir yulduz bo'lsa, oxirgi evolyutsiya natijasida qora tuyunki aylanadi, - dedi O'zbekiston Respublikasi fan arbobii, akademik Bobomurod Ahmedov. - Qora tuyuk astronom olimlarning

dijqat markazida bo'lib, u haqidagi ilk natija 1916-yilda olingan. 2017-yilda ilk bor maxsus radioteleskop orqali qora tuyunklar suratga olindi. Natijalar 2 yil davomida tahlil qilinib, o'ta massiv qora tuyunkning ilk surati e'lon qilindi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, koinotda "O'q otar" yulduzchaning ham surati olindi. Ikkala obyektni ham suratga olishda professor Lusiano Rezzollaning xizmati katta. Ushbu ilmiy tadqiqotlar

natijasida Yevropadagi eng katta ilmiy grant qo'liga kiritildi. Maxzur grantda uchta yetakchi guruh ishlamoqda.

Lusiano Rezzollaning Samarcandga kelsi - bu tarixiy voqeа. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, astrofizik olim so'ngi 30 yil ichida bir qator o'zbekistonlik tadqiqotchilar bilan ishlab kelmoqda. Ulardan biri Samarcand davlat universiteti bitiruvchisi Farrux Fattoyevdir. U ayni vaqtida AQShning Monhetton universiteti professori.

- Men Markaziy Osiyo universitetlari forumi doirasida O'zbekistonga keldim va bundan juda xursandman, - dedi Gyote universiteti profesori Lusiano Rezzolla. - Ayniqsa, buyuk olim Mirzo Ulug'bekning yurtida ekanligin menga faxr-iftixon bag'ishlaydi. Avval ham bir qator o'zbekistonlik tadqiqotchilar bilan ishlaganman. Ular menda yaxshi taassurot qoldirgan. Agar yana o'zbekistonlik talaba va tadqiqotchilar bilan ishslash imkonи bo'lsa, albatta, foydalana-man.

Uchrashuvda olimning qora tuyunklar bo'yicha qilgan ma'ruzasi yig'ilganlarda katta qiziqish uyg'otdi.

**Behruz SHAMSIDDINOV.**

## Bugunning gapi



### YOSHLAR MUAMMOSI HAL ETILMASLIGIGA SABAB BO'LYAPTI

**Bundan ikki yarim yil avval ijtimoiy tarmoqlarda shov-shuv bo'lgan Nurobod tumani yoshlari bilan bog'liq "eski noutbuk" voqeasi hali ko'pchilikning yodidan ko'tarilmagan bo'lsa kerak. O'shanda viloyat hokimi bunday acharinli holatdan mas'ullar xulosa chiqarishi lozimligini aytgandi. Ayrim mutasaddilar egallab turgan lavozimidan ozod etilgandi. Afsuski, tumanda bugun ham yoshlarga e'tibor sust ekanligi ma'lum bo'lyapti.**

Joriy yilda o'tkazilgan xatlov natijasi va shakllantirilgan "yoshlar balansi"ga ko'ra, tumandagi 41 ming 732 nafar yoshning 29 ming 553 nafari "yashil", 12 ming 179 nafari "sariq", 604 nafari esa "qizil" toifada ekanligi aniqlangan. Shundan kelib chiqib, 604 nafar og'ir toifadagi yoshga 23 nafar mas'ul, 16 ming 463 nafar otaliqqa olinigan yoshga esa mudofava va huquq-tartibot organlarining 44 nafar xodimi biriktirilgan.

Aynan shu masala bo'yicha yaqinda olib borilgan nazorat tadbirlari natijasiga ko'ra, bir qator kamchiliklari aniqlangan va bu viloyat hokimi ishtiroyida o'tkazilgan yig'ilishiga muhokama qilindi.

Masalan, Olg'a, Zarafshon va Sahoba mahallalariga biriktirilgan tuman qo'riqlash xizmati xodimlari tomonidan otaliqqa olinigan yoshlar bilan 2 oydan beri umuman uchrashuvlar o'tkazilgan.

Majburiy ijob yuurosiga tuman bo'limi rahbari o'ziga biriktirilgan Omondara mahallasida og'ir toifadagi 11 nafar hamda ishsiz 8 nafar yosh bilan o'tgan 9 oy davomida bir marta ham uchrashmagan.

Jarquduq mahallasiga biriktirilgan tuman ichki ishlari bo'limi boshlig'i o'rinosboshi ham 9 nafar og'ir toifadagi hamda 14 nafar ishsiz bo'igan yoshning holdan xabar olmagan.

Shuningdek, tuman maktabgacha va maktab ta'llimi bo'limi mudiri o'ziga biriktirilgan Mash'al mahallasida yashovchi 21 nafar yosh bilan, "Xalq banki" tuman filiali boshqaruvchisi Girdiqo'rg'on mahallasida yashovchi 5 nafar yosh bilan uchrashmaganligi aniqlangan.

Bundan tashqari otaliqqa olinigan yoshlarga biriktirilgan tuman adliya, ichki ishlari bo'limlari va milliy gvardiya xodimlari tomonidan huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha seminarlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tanlov va musobaqalar tashkil etilgan.

- Mahallamiza yashovchi "qizil" toifadagi yoshlar bilan uchrashib, muammoliga yechim topishida ularga yaqindan ko'maklashish uchun tuman maktabgacha va maktab ta'llimi bo'limi

mudiri biriktirilgan edi, - deydi Mash'al mahallasasi yoshlar yetakchisi Oybek Abdug'aniyev. - Uning o'rniga bo'lim xodimi kelib, yoshlar bilan uchrashdi, ammo natija ko'nga tashlanmadidi. Yig'ilishda viloyat hokimi shu masalani o'rta ga tashlagandan keyin Latif Karimov kelib, o'ziga biriktirilgan har bir yosh bilan uchrashdi va ularning muammolarini tingladi.

Shuningdek, yig'ilishda ta'kidlanganidek, yil boshidan 748 nafar yigit-qiz "yoshlar daftari"ga kiritilgan bo'lib, 568 nafar qaraginiga amaliy yordam ko'satilgan.

- O'tgan 2023-yilda 1720 nafar yigit-qiz "yoshlar daftari"ga kiritilib, barchasining murojaati qanoatlantirilgan, - deydi tuman yoshlar ishlari bo'limi boshlig'i Asomiddin Ziyotov. - Joriy yilda "yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlarning 30 foizi hali ro'y-xattdan chiqarilmagani rost. Bunga yoshlariga subsidiya asosida uskunalar olib berish uchun mahalliy budgetdan orttiriladigan mablag'ni shakllantirish, murojaatlarni joyiga borib o'rghanish, yer ajratishda aukcion bilan bog'liq bo'lgan tushunmovchiliklar sabab bo'ldi. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rilyapti.

Yig'ilishda "yoshlar daftari" bilan ishslash bo'yicha 9 ta mahallanining yoshlar yetakchilari faoliyati o'rganib chiqildi, - deydi Asomiddin Ziyotov. - Bu yetakchilar orasida o'tgan ikki yarim yillik faoliyati davomiy yaxshi natija ko'rsatgan, viloyat va respublika tanlovlari qatnashib, g'oliblikni qo'liga kiritganlari ham bor. Shuningdek, yoshlar bilan ishslashda sustkashlikka yo'q qo'yayotgan yetakchilar ham yo'q emas. Masalan, zamona yaxshi texnologiyalardan foydalananida, onlayn platformalar bilan ishslashda kamchiliklarga yo'q qo'yayotgan va ularning shu kabi xatolari sababli yoshlar muammolari hal etilmay qolayotgani uchun Saroy va Jom mahallalari yoshlar yetakchilari vazifasidan ozod etildi.

Taqnidiy ruhda o'tgan yig'ilishda Mash'al mahallasasi ikkinchi bor tilga olindi. Ya'ni, "yoshlar daftari" bilan ishslash ko'rsatkichi past bo'lgan to'qqiztalikda ayanan shu mahalla ham bor edi.

- Faoliyatim tanqid qilinganidan afsusdamon, - deydi mahalla yoshlar yetakchisi Oybek Abdug'aniyev. - Ish boshlaganimdan beri biror marta kamchilikka yo'q qo'ymagandim. Shuning uchun bu holatdan hayratlandim ham. Nega, degan savolni berdim o'zimga o'zim. Chunki men qaysidir yoshni daftarga kiritishdan avval uning imkoniyatlarini o'rganaman. Masalan, o'tgan 2023-yilda ishsiz yosh Shahzod O'rionboyev subsidiya asosida noutbuk olish uchun "daftar"ga kiritilishini va kelgusida avtomobilarga kompyuter diagnostika xizmati ko'satishini istayotganini aytdi. U bilan suhbat qilganim-

da hali bu yo'nalishda o'qimaganligini, ammo qiziqishi borligini aytdi. Unga avval "Monomarkaz"da o'qib kelishini, keyin esa noutbuk uchun subsidiya ajratilishiga ko'maklashishimni bildirdim. Shahzod avval o'qidi, keyin "daftar"ga kiritilib, subsidiya asosida noutbuk olishga erishdi va faoliyatini boshlab, bugungi kunda oyiga 10 million so'mga yaqin daromad qilyapti.

Joriy yilda mahalladagi 23 nafar yigit-qiz "yoshlar daftari"ga kiritilgan va ularning 6 nafari "daftar"da turganligi uchun yig'ilishda tanqid qilingandi.

- 6 nafar yoshning birini ishga joylashtirish natijasida daftardan chiqarishga erishdi, - deydi Oybek Abdug'aniyev. - Ammo 5 nafari subsidiya asosida uskuna olish maqsadida murojaat qilgani uchun bu masala hal etilmay turibdi. Bu birgina men faoliyat olib borayotgan mahalladagi emas, tuman miyosidagi masala.

- Tikuvchilik bilan shug'ullanish uchun 3 oylik o'quv kursini tamomlab, sertifikat olibdim, - deydi Yangiqishloq guzarida yashovchi To'Ig'onyo Usanova. - Mahallamizdagidagi yoshlar yetakchisi maslahati bilan subsidiya asosida tikuv mashinasi olishim mumkinligini eshitib, xursand bo'ldim. Uning yordamida "yoshlar daftari"ga kiritildim. Mana, oradan 3 oydan ziyod vaqt o'tdi, ammo haligacha menga uskuna berilmadi.

Tumandagi mas'ullar nega o'zlariga biriktirilgan yoshlarga e'tiborsiz ekanligi, nima uchun "yoshlar daftari" dagilarga ko'mak ko'satilishi sostligi bo'yicha tuman hokimligi mutasaddilarining munosabatini bilishni istadi. Afsuski, ularni ish joyidan topish qiyin bo'ldi. Tuman hokimi o'rinnbosari Sirojiddin Xo'jamiyarov bilan bir amallab telefon orqali bog'langanimizda, u terivyu berishni xohlasmadi.

Tuman axborot xizmati rahbari ham savollarimizga mas'ullardan javob olib berishning uddasidan chiqmadidi.

**P.S: Maqola tayyorlanayotganda mas'ullar munosabat bildirishdi.**

- Og'ir toifadagi yoshlar bilan ishslashda kamchiliklarga yo'q qo'yilgan, - deydi berilgan munosabatda Sirojiddin Xo'jamiyarov. - Mas'ullar bundan to'g'ri xulosa chiqarib, yoshlar bilan uchrashdi. Ularga nisbatan choralar ko'rilyapti. Shuningdek, tumanda 84 nafar yoshga subsidiya asosida uskunalar yetkazib berilmagani. Bu bora-dayam tuman mahallabay ishslash bo'limi bilan hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda.

Ammo bu munosabat yoshlar muammliga yechim degani emas. Xulosa o'zingizdan.

**To'Iqin SIDDIQOV,  
Baxtiyor MUSTANOV,  
"Zarafshon"  
muxbirlari.**



Paxtachi tumanidagi Hunarmand mahallasi aholisining qariyb 90 foizi tadbirkorlik bilan shug'ullanadi. G'aybulla Rahmonov oilasi bunga misol. Asli kasbi haydovchilik bo'lgan G'aybulla bugungi kunda gulchilik bilan mashg'ul.

Bu yil tomorqasiga xrizantema gulining o'n xil turidan 10 mingta ko'chat ekdi. Bundan tashqari, yana o'n turdan ortiq gul ko'chatlar parvarishlab, bozorga chiqaryapti. Unga bu ishlarda oila a'zolari yordam berishyapti.

**Izzatulla NORQUVVATOV olgan surat.**

# Umri ibratga aylangandi

**Odamlar dunyodan o'tgan ardoqli kishilarni eslaganda "Yaxshi odam edi" deyishadi. E'tibor bersangiz, bu oddiy gap, ammo uning zamirida odamlarning u insonga nisbatan cheksiz mehri, hummati yotadi. Ana shunday insonlardan biri paxtachilik O'tkir Toshev edi.**



O'tkir tengdoshim, siftdoshim, birga katta bo'igan ziyrak do'starlidan biri edi. U maktabda o'qib yurgan paytlariyoq tashabbuskorligi, siftdoshlarini ortidan ergashtra bilishi bilan boshqalardan ajralib turardi. 6-sinfda o'qib yurgan kezlarimizda Narpay kanali yoqasida qishlog'i ida yashovchi Qahhor bobonikiga 4-5 nafar tengdoshini yoniga olib, 30 tacha asalari qutisini boshqa qulay joyga ko'chirish uchun hashar tashkil qildi. Keksa otaxonqa boshqa uy yushmanlarini bajarishda qo'dan kelguncha yordam berdi. Otaxon O'tkir boshliq "kichik hasharchilar" ishidan juda mammun bo'ldi. Bu O'tkirning tashkilotchiligi bilan birga odamlarga yaxshilik qilishni odtaga aylantirgan ilk harakatlardan edi.

O'tkir yosh bo'sa-da, qiyinchiliklardan cho'chimasdi, uni yengib o'tishga harakat qildi. 1971-yilning 22-fevralidagi voqe'a sira yodimdan chiqmaydi. Biz, olti siftdosh voyenkomat (o'sha paytlari hozirgi mudofaa ishlari bo'limi shunday atalardi) harbiy xizmat uchun hujjat tayyorlashga Oqtosh shahriga bordik. Ko'rikdan o'tguncha kech soat 6 bo'lib qoldi. Qish emas-

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## IJARAGA OLING VA FOYDALANING!

Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi quyidagi obyektlarni ijara beradi:

### IJARAGA BERUVCHI

Nomi:	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi			
Manzili:	Samarqand viloyati Samarqand shahari Spitamen shohko'chasi, 157-A" uy			
Telefon raqami:	+998905055649	Elektron pochta manzili:	samarqand_markaz@dvaktiv.uz	
OBYEKTNI BERISH SHARTLARI				
1-obyekt	Alkogollı ichimliklar sotilmaydigan umumiy ovqatlanish shoxobchalari (choyxona)			
2-obyekt	Alkogollı ichimliklar sotilmaydigan umumiy ovqatlanish shoxobchalari, hunarmandchilik markazlari (mukammal bo'lmagan inshootlar va kichik arkitektura shakllarini qurish)			
3-obyekt	Alkogollı ichimliklar sotilmaydigan umumiy ovqatlanish shoxobchalari, hunarmandchilik markazlari			
4-obyekt	Alkogollı ichimliklar sotilmaydigan umumiy ovqatlanish shoxobchalari (choyxona)			
5-obyekt	Nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari uchun ofis			

### IJARA OBYEKTI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

Nomi	Manzili	Balansda saqlavchi tashkilot nomi	Obyektning umumiy maydoni kv.m.	Bino-inshoot maydoni kv.m.	Hozirgi kundagi holati
1-obyekt	Karvonsaroy (hozirda "Sharq shirinliklari" choyxonasi)	Islom Karimov ko'chasi, 43-uy	Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi	703,19	396
2-obyekt	"Afrosiyob" arxeologiya yodgorliklari	Vohid Abdullayev ko'chasi	Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi	800	-
3-obyekt	"Afrosiyob" arxeologiya yodgorliklari	"Bog'i maydon" MFY, Vohid Abdulayev ko'chasi	Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi	800	-
4-obyekt	"Ashratxona" maqbarasi	Sadriddin Ayniy ko'chasi, 6-uy	Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi	500	-
5-obyekt	"Xo'ja bobo" (Pan job) madrasasi	Firdavsiy ko'chasi, 150-uy	Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi	1738,5	898,71

### RESTAVRATSIYA-TIKLASH ISHLARINI OLIB BORISH, UNI SAQLASH, OBODONLASHTIRISH VAUNDAN FOYDALANISH SHARTLARI

1-obyekt	Madaniy meros obyektiqas tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida maxsus litsenziyaga ega loyiha va pudrat tashkilotlarni jalb qilgan holda restavratsiya va asrashga doir konservatsiya hamda obodonlashtirish ishlarini olib borish lozim.
2-obyekt	Madaniy meros obyektiqas tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida maxsus litsenziyaga ega loyiha va pudrat tashkilotlarni jalb qilgan holda restavratsiya va asrashga doir konservatsiya hamda obodonlashtirish ishlarini olib borish lozim.
3-obyekt	Madaniy meros obyektiqas tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida maxsus litsenziyaga ega loyiha va pudrat tashkilotlarni jalb qilgan holda restavratsiya va asrashga doir konservatsiya hamda obodonlashtirish ishlarini olib borish lozim.
4-obyekt	Madaniy meros obyektiqas tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida maxsus litsenziyaga ega loyiha va pudrat tashkilotlarni jalb qilgan holda restavratsiya va asrashga doir konservatsiya hamda obodonlashtirish ishlarini olib borish lozim.
5-obyekt	Madaniy meros obyektiqas tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida maxsus litsenziyaga ega loyiha va pudrat tashkilotlarni jalb qilgan holda restavratsiya va asrashga doir konservatsiya hamda obodonlashtirish ishlarini olib borish lozim.

### MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARI DAVLAT KADASTRIGA KIRITILGAN KADSTR AXBOROTI

1-obyekt	14:16:01:39:01:0107 kadastr raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan
2-obyekt	14:16:01:01:14:9909 kadastr raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan
3-obyekt	14:16:01:01:14:9909 kadastr raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan
4-obyekt	14:16:01:03:05:0652 kadastr raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan
5-obyekt	14:16:02:02:07:0510 kadastr raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan

### Investitsiya majburiyatlarining eng kam miqdorlari

	Obyektni ijara olish muddati
1-obyekt	600 mln. so'm
2-obyekt	1 mlrd. so'm
3-obyekt	800 mln. so'm
4-obyekt	1,2 mlrd. so'm
5-obyekt	2,5 mlrd. so'm

**Eslatma:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-martdag'i 53-sonli qaroriga asosan, ro'yxatlar ommaviy axborot vositalarida e'londa belgilangan muddatda buyurtmanolalar kelib tushmaganda, mazkur obyekt bo'yicha buyurtmanolalar kelgusi davr uchun har o'n kunlik davriylikda qabul qilinadi.

**DAVLAT MULKI OBYEKTLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MARKAZI  
SAMARQAND VILOYAT HUDDUYI BOSHQARMASI.**

## Sharif OSTONOV



Beshafqat o'lim Samarqand davlat tibbiyot universiteti bosh muhandisi Sharif Ostonovni oramizdan olib ketdi.

Sh.Ostonov 1953-yil 3-aprel kuni Kattaqo'rg'on tumani da tavallud topgan. 1979-yilda Toshkent politexnika institutining qishloq xo'jalik mashinalari muhandisi mutaxassisligini, 1991-yilda Toshkent Oliy partiya maktabining politolog mutaxassisligini tamomladi.

50 yillardan ortiq mehnat faoliyatida davomida yetuk muhandis va olim sifatida shakllandi. Ish faoliyatida yangilikka intiluvchan, o'z ustida tinimsiz ishaydigan, o'zi va boshqalarga nisbatan talabchan muhandis, rahbar ekanligini namoyon eta oldi.

Sh.Ostonov universitet jamoasida hamkasbli, shogirdlari orasida humratga sazovor edi. To'g'risi, zulgi, mehribonligi, g'amxo'rliqi, madaniyatlari va kamtarligi bilan ajralib turardi.

Mohir tashkilotchi, o'z ishining ustasi, jonkuyar rahbar Sharif Ostonovning yorqin xotirasiga qalbimizda abadiy saqlanadi.

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektorati va kasaba uyushmasi qo'mitasi.**

ning oxirigacha ushu-bu vazifada mehnat qilib kelayotgan edi. U o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni, vijdanan, halol bajardi. Buning natijasida bir necha bor yuqori turuvchi tashkilotlarning faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan taqdirlandi.

Universitedagi mehnat faoliyatida davomida yetuk muhandis va olim sifatida shakllandi. Ish faoliyatida yangilikka intiluvchan, o'z ustida tinimsiz ishaydigan, o'zi va boshqalarga nisbatan talabchan muhandis, rahbar ekanligini namoyon eta oldi.

Sh.Ostonov universitet jamoasida hamkasbli, shogirdlari orasida humratga sazovor edi. To'g'risi, zulgi, mehribonligi, g'amxo'rliqi, madaniyatlari va kamtarligi bilan ajralib turardi.

Mohir tashkilotchi, o'z ishining ustasi, jonkuyar rahbar Sharif Ostonovning yorqin xotirasiga qalbimizda abadiy saqlanadi.

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektorati va kasaba uyushmasi qo'mitasi.**

(1982-yil 4-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Saidova Zarina Xisrovna notarial idorasiga murojaat so'raymiz.

### Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

\*\*\*

Jomboy tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Baro Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Abduraxmonova Dilrom Amanovnaga (2023-yil 21-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Mirzayeva Baro Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

### Manzil: Jomboy tumani Zebuni-so ko'chasi, 4-''A'' uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'gmatilloyevich notarial idorasida marhum Abdulxakov Rustamga (2021-yil 28-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Rahmonov Sarvar Ne'gmatilloyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

### Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Farhad Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Abduraxmonova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Xakimova Dilshoda Xashimjonovnaga (2024-yil 16-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Abduraxmonova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

### Manzil: Samarqand shahri Spitanmen shohko'chasi, 157-uy.

\*\*\*

Mo'ljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

\*\*\*

Payariq tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Mardiyev Shodiga (2024-yil 9-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan mer

Olim muammoga nazar tashlaydi

# BAXT QASRIGA QADAM QO'YGANLAR

nega undan osongina voz kechyapti?

Tantanali to'y bo'lib o'tdi. Hamma yaxshi tilaklar bildirdi. Ilohim baxtli bo'linglar, qo'sha qaringlar. Bir-birlaring bilan ahil yashab, solih va soliha farzandlar ko'ringlar, deb duo qildilar. Katta orzu-istiklar bilan kelin yangi uysa keladi. Yigit ham minglab qizlar ichidan shu qizga uylansam, baxtli yashayman, u menga munosib, deb tanlagan bo'ldi. Ota-onalarning orzusi va niyatlarini ham cheksiz.

## "YO MENI DE, YO XOTININGNI!"

Baxtli hayot deganda ro'zg'orning butligi oila a'zolarining bir-birini tushunib, hamjihatlikda umr kechirishi tushuniladi. Barcha oila a'zolari bir tan, bir jon bo'lib, qiyinchilik va muvaffaqiyatlarini baham ko'rib yashadi. Ammo ayrim oilalarda aksincha. Biroz fursat o'tmasdan kelin o'zini begona his qila boshlaydi. Qaynona hali ro'zg'orga ko'nikmagan va to'liq tajribaga ega bo'lmagan kelining ishidan ko'ngli to'imaydi. Unga o'rgatish o'rniqa, faqat kamchiliklarini ta'kidlay boshlaydi va ichki norizolik paydo bo'lganligini sezdirib qo'yadi. Albatta, bu ataylab qilinmaydi. Lekin qaynonanining qaynonalik burchi kelinni kuzatib, uning kamchilikini yuziga solish emas, balki unga o'rgatish ekanligini bilmaydi.

Ammo qaynona oilaviy muhitini keliniga o'rgatishi, uning bu muhitga moslashishiga yordam berishi lozim. Tanbech, tanbech va yana tanbech. Bu asta-cekinlik bilan kelinni bezdirib qo'yadi. U o'zini begona his qila boshlaydi. Bu holat oilda samimiyatning yo'qolishiga, muhitning buzilishiga olib keladi. Vaziyat murakkablashib, qaynona o'g'liga shart qo'yadi: "meni de yoki xotiningni". O'g'il ikki o'tning orasida qoladi. Qanchalik sevgan bo'imasin, onani ustun qo'yib, ayolidan voz kechadi.

## AJRASHISHDA HAMMA MAG'LUB

Bunday holda qaynona o'zini g'alaba qildim, deb hisoblaydi. Kelin shu oilda yashagandan ko'ra ketganim yaxshi bo'ldi, deb o'zini ovutadi. Ammo bu jayondona ikki domon yutqazgan bo'ladi. Eng yomoni, o'rtadagi bolalar sarson bo'ladi. Bunday oilda o'sgan bola tarbiyasida nuqsonlar bo'y ko'rsatadi.

Hozir yoshlarni hayotga tayyorlash haqida juda ko'p gaplar, tadbirlar bo'limoda. Bu juda xayrli ishlardan ma'lum darajada o'zining samarasini ham bermoqda. Ammo bugungi muammoldaridan kelib chiqib, mentalitetimizga xos bo'lgan oila muhitini chuqur o'rganib, shunga qarab tavsiyalarni ishlab chiqdigan oila institutlarini ham tashkil qilish lozimga o'xshaydi. Bunda qaynonalarning kelinga munosabatini chuqur o'rgatish kerak. Qaynona keliniga ona, ustoz, yaqin sirdosh, dugona, o'g'lining baxti kabi jihatlarni inobatga olgan holda yondashishi lozim. Shu jihatdan kelin va qaynona o'tasida jarlik emas, balki eng yaqin va samimiy munosabat asosida o'nataligam birlik bo'lishi zarur.

Oilda ma'naviy muhit yaxshi bo'limas ekan, hayot darajasi va sifati haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Sifatlari hayotning negizida moddiy omillar bilan birga, uning ma'naviy jihatlari ham ulkan ahamiyatiga ega. Oilda samimiyat, ishonch, mehr-oqibat bo'limasa, faqat moddiy ta'min bilan undagi ruhiy muhitni yaxshilab bo'limaydi.

## MUAMMONING SABABLARI

Har qanday muammoni hal qilish uchun eng avvalo, uning kelib chiqish sabablarini aniqlash lozim bo'ladi. Shu jihatdan uning ildizi nimada, degan savolga javob axtaridik. Bular, bizning hayotiy tajribalarimiz va kuzatuvalrimizning dalolat berishicha quyidagilardan iborat:

- qaynona o'z uyiда kelinga nisbatan o'zini ukumron his qilishi;
- kelin o'z taqdirini shu oila bilan bog'lab, uning to'laqonli a'zosini bo'lib kelgan bo'lsa-da, qaynona unga kelgindi sifatida qarashi;
- qaynonadagi manmanlikning as-



ta-sekinlik bilan kelinga o'tib borishi;  
• note'o'ri munosabat natijasida kelinda qaynonaga nisbatan salbiy dunyoqarash shakllanishi;  
• kelindan qaynonanining faqat talab qilishi va uning muammolari va dardlari bilan qiziqmasligi;  
• ayrim qaynonalarning o'g'lini kelinidan qizg'anishi;  
• qaynonada kelinni tarbiyalash mahoratining yo'qligi;  
• kelinning ushbu oiladagi ma'naviyruhiy jarayonga moslasha olmaganligi, ko'nikmar hosil qilmanligi;  
• qizlarni hayotga tayyor bo'limadan turmushga berish;  
• kelinning ro'zg'or ishlarni bajarada olmasligi;

## BIR UYDAGI YASHIRIN "DUSHMANLAR"

Ushbu holatda ko'proq qaynonalarning kelinni yangi ro'zg'orga o'rgatish va tabiyalash bobidagi kamchiliklariiga, kelinning esa tajribasizligini tan olib, shu ro'zg'or meniki, deb his qilish ko'nikmasini shakllantira olmaganligiga to'xtaldik. Buning sababi, kelinlar birovning ro'zg'origa janjal qilaman, shu yerdan bir kuni qaynonan bilan kelishmasdan iztirob bilan, noxushlikda yashayman, alal oqibat uydan chiqib keta-man, deb kelmaydi. Balki ushbu xonadonda baxtli bo'laman degan katta ezgu niyatlar bilan keladi. Ammo ushbu niyatning amalga oshishi uchun juda ko'p jarayonlarni o'tashga, qiyinchiliklarni yengishga to'g'ri keladi. Biroq hali hayotiy tajribaga ega bo'limagan yosh kelinlar ning sabr kosasi tezroq to'jadi va oqibatda ular ham o'zlarini namoyon qilishga o'tadi. Bunda aqlli kelinlar hayotga moslashish uchun kurashsa, ayrimlari qaynona bilan kurashishga kirishib ketadir. Oradagi parda ko'tariladi. Natijada qaynona kelin dan, kelin esa qaynonadan norizo bo'lib yashashga o'tadi. Bunday oilda muhit buziladi, baxt istab kelgan kelin o'zini baxtsiz his qila boshlaydi.

Ko'rinish turibidki, muammo ancha jiddiy. Biroq uning yechimi, ya'ni hal qilish yo'li bormi? Agar ushbu jarayon tabiat qonuni bo'lganida edi buning imkonni bo'limasligi mumkin edi. Insonlar munosabati bilan bo'ladigan har qanday muammoni insonlarning o'zlarini hal qilishlari mumkin.

**Mamayunus PARAYEV,**  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori.

## MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

### Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 740 nusxada chop etildi. Buyurtma 538. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LMILAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.



18-oktabr – Samarqand shahri kuni

# Farovonlik siri nimada?

Samarqand shahridagi Charmgari mahalla-si 2021-yilda Samarqand tumanining Sayxun mahallasini bo'lish orqali tashkil etil-gan. E'tiborilisi, 3365 nafr fuqaro istiqomat qilayotgan guzar qisqa vaqt ichida Samارqand shahrining eng oldi mahallalari qatoriga qo'shildi.

— Ishni boshlaganimizda mahallaning binosi ham yo'q edi, — deydi rais Hasan Majidov. — Faollar bilan kengashib, uni hashar yo'li bilan quradigan bo'ldik. Ish borishi davomida homiylar ham topildi. Hozir zamonaviy, "mahalla yettiligi" va fuqarolar bilan ishslash uchun barcha qulayliklarga ega binoda faoliyat yurityapmiz. O'tgan davrda hashar yo'li bilan 850 metr ariqni betonladik, 1200 metr eski gaz quvurlarini yangiladik, 1500 metr ichimlik suvi tarmog'i tortdik. Bularning barchasi xalqimizning hamjihatligi, umummanfaatni o'zinikidan ustun qo'yishi hisobiga.

Biz mahalla raishidan aholi birligiga erishishning asosiy omili haqida so'radik. Unga ko'ra, bu natijaga umumiy bayramlar orqali erishilgan. Ya'ni, ko'p joylarda unut bo'layotgan qadriyatimiz - mahallalarda umumxalq bayramlarini nishon-

lash an'anasi insonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, ular o'rta-sida mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Charmgarida ayni tajriba ish bergan.

Hamjihatlikning yana bir afzalligi bu hududdagi muammoni yechish uchun barcha bir yoqadan bosh chiqarishidir. Shu bois o'tgan vaqtida hududda birorta jinoyat yoki ajrim qayd etilмаган. Ishsizlik ko'satikchi ham eng past darajada, tadbirkorlik rivoljan-moqda. Unda jami 4 ta xususiy o'quv markazi 52 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritadi. Mahalla binosining o'zida "Samarkand Euro Asia textile" korxonasining filiali tashkil etilgan bo'lib, unda mahallaning 25 nafr xotin-qizi bandlig'i ta'minlangan.

— Yil boshida mahallamizda 21 nafr ishsiz ro'yxatga olingan edi, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Temur Haydarov. — O'tgan vaqtida ularning 11 nafrasi ishga joylashtirildi, 4 nafrasi kredit olib, oilaviy tadbirkorlikni boshladi. 7 nafr fuqaro migratisiya idorasiga orqali chetga, qonuniy asosda ishslash uchun ketdi. Shu davrda umumiy hisobda 26 nafr fuqaroni yangi kasbarga o'qitdi. Hozir mahallamiz ishsizlik va kambag'allikkadan xoli hudud hisoblanadi.

Joriy yilning 2-5-oktabr kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan "Mahalliy aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o'rni" mavzusida xalqaro konferensiya ishtirokchilari shu mahallada bo'lib, "mahalla yettiligi" tajribasini o'rgandi.

Asqr BAROTOV.

# Kattaqo'rg'on shahridagi muzey qachon ta'mirlanadi?

Kattaqo'rg'on shahar tarixi o'lkashunoslik muzeyi mam-lakatimiz muzeylari orasida kolleksiyalarga boyligi va xilma-xil-lige bilan yetakchi o'rinda turadi. Muzey shaharning Zarifobod mahallasida joylashgan bo'lib, tabiat, arxeologiya, etnografiya, tasviriy san'at yo'nalishlariga ega ekspozitsiya tashkil etilgan.

Muzey direktori Dilobar Toirovning aytishicha, tabiat ekspozitsiyasida Kattaqo'rg'on suv ombori atrofidan yig'ilgan qushlar, yovvoyi hayvonlar va sudralib yuruvchilar namoyish etilmoqda. Arxeologiya ekspozitsiyasida Kattaqo'rg'on hududidagi tepaliklarni qazish paytda topilgan topilmalar, mehnat qurollari, turli sopol idishlar va haykalchalar, bolalar o'ynichoqlarining bo'laklari, xanjar, nayza va kamon o'qlari uchlarini ko'rish mumkin. Maishiy turmush ekspozitsiyasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Kattaqo'rg'on aholisi tomonidan foydalanilgan yog'och, va misdan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari, paransi, chachvon, kultapushak, milliy do'ppilar, kovush-mahsilar, zargarlik buyumlari, kashta, zardevar kabi buyumlar namoyish etilmoqda.

Muzeysi mustaqillik davri ekspozitsiyasi ham bo'lib, unda mustaqillik yillarda fan, madaniyat, ta'lim, sport sohalarida hurmat qozongan, o'z kasbinining mohir ustalari haqida lavhal, shuningdek, Kattaqo'rg'on shahrida amalga oshirilgan bunoqida muzye rasman tashkil etilgan.

1976-yil may oyida to'rtinchini to'ifadagi shahar tarixiy o'lkashunoslik davlat muzeysi aylantirilib, 1980-yilda Samarqand davlat muze-yo'riqxonasi tasarrufiga olingach, jome masjidiga aylantirilgan va o'sha yili tarixiy o'lkashunoslik muzeysi shaharning O'zbekiston ko'chasi 105-uy manziliga ko'chirilgan.

Ayni paytda shaharning Zarifobod mahallasida joylashgan mazkur muzeyda 6161 ta eksponat bo'lib, asosiy fondda 3841 ta, yordamchi fondda esa 2320 ta ashyo bor va 262 ta eksponat ekspozitsiya zallariga qo'yilgan. Ammo ekspozitsiya xonalari va zallarining aksariyatida elektr yo'q, isitish tizimiga ulanmagan va xonalardagi pollar chirigan. Binoning fasadi va tom qismi ham ta'mirtalab holatda turibdi.

F.RO'ZIBOYEV.

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

### 16-OKTABR

**Tog'aymurod SHOMURODOV** – 1945-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. Jurnalist. «Do'stlik» ordeni sohibi.

### 18-OKTABR

**Abduaziz YUSUPOV** – (1927-2006) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi. Tibbiyot fanlari doktori, professor.

**Fazliddin YOQUBJONOV** – 1945-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Dirijor. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

Navbatchi muharrir:

G. HASANOV.


Navbatchi:

T. SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B. ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda